

Mirzo Bobur ijodiga bir nazar

Joriy yilning 14 fevral kuni 5-TTJda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligiga bag'ishlab "Qalbimizda mangu yashar buyuk siymolar" deb nomlangan adabiy-badiiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, tarbiyachi pedagog Sh.Ismanova, fakultet tyutorlari hamda talaba yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirda ulug' mutaffakkir va sarkarda xotirasi yodga olindi. Talaba-yoshlar nafis ruboiy va gazallardan namunalar yod olishdi. 14-fevral Boburiylar sulolasining asoschisi, buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud topgan kun.



Ma'lumki, iste'dodli shoir hamda davlat arbobi adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan. U ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rsatib homiylik qilgan hamda ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borgan. Ijod va san'at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Umrining to oxirigacha samarali ijod qilishdan to'xtamagan Bobur butun dunyo ahliga boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi. Buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ijodiy kechada talaba-yoshlarda Temuriylar sulolasi vakili Bobur Mirzoning shoh va shoir sifatida qilgan ishlari, o'zidan keyin qoldirgan boy merosi haqida gapirilib, uning asarlarini o'qib, o'rganish inson ma'naviy dunyosining boyishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti